



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani, O'zbekistonko'chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2021 - yil 31 - dekabr

VI-37-77-8-118-K/21

Uzun tuman hokimligi

### Surxondaryo viloyati Uzun tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2021 yil 30 dekabrda 22-04-10/6396-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijro va ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrda O'RQ 742-sonli Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Uzun tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 86 mlrd. 852,9 mln so'm, xarajatlari 199 mlrd. 586,4 mln so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 112 mlrd. 733,4 mln. so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Uzun tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo'ljallari [1-ilovaga](#) muvofiq, 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi [2-ilovaga](#) muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tuman budjetidan budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar

normativlari [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha tuman mahalliy budjeti taqsimotini o'rnatilgan tartibda tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi [5-ilovaga](#) muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1 mlrd. 882 mln so'm miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Uzun tuman budjetining ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjeti zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g'azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 810 mln. 870 ming so'm [7-ilovaga](#) muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda Xalq deputatlari Kengashini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan jismoniy

shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig'i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2021-yil 1- iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi

ulushiga muvofiq taqsimlansin. Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

b) tumanning tuman mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy

faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari).

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar

v) tuman budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'implar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig'implar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'implardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;

(xar bir soliq turi bo'yicha ajratmalar normativi ko'rsatiladi)

11. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari B.Xasanov, Moliya bo'limi B.Baratov, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzaev) tuman mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan budget tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzaev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzaev), Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i (N.Qoraqulov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkleri maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

14. Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati Uzun tuman bo'limi (Z.Raximov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi (D.Safarova) tumandagi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

Tuman Irrigatsiya tizimlari bo'limi (Yu.Saidov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzaev), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur

16. Iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni

to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

17. Tuman Ichki ishlar bo'limi (M.Ishqoraev), tuman yo'l harakati xavfsizligi bo'limi (O.Rizaev), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i (X.Abdukadirov) hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko'rib borsin.

18. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatning qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimigi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi

oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta‘minlasin.

22. Mazkur qaror “Bobotog‘ tongi” gazetasida rasmiy e‘lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**Tursunov B. B.**

Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
1-илова

Узун туманининг 2022-йилга ривожлантиришнинг макroiqtisodiy ko'rsatkichlari  
prognoz ko'rsatkichlari hamda 2023-2024-йилга mo'ljallari

№	Ko'rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz	2023-yil uchun mo'ljal	2024-yil uchun mo'ljal
				1. Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda
				105,3
				106,0
				105,0
2.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	103,8	104,2	104,3
3.	Xizmat kursatish sohasi o'sish sur'ati, foizda	112,5	113,5	110,9
4.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	106,5	107,4	108,3
5.	Qurilish ishlari hajmi o'sish sur'ati, foizda	106,5	106,6	106,7



Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
2-илова

Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari  
ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami	I. Mahalliy soliq va tushumlar	58 568 100,0
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	1 056 000,0		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	30 729 000,0		
3	Yagona soliq to'lovi	6 982 000,0		
4	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	7 265 000,0		
5	Aksiz solig'i	2 889 600,0		
	shu jumladan:			
6	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	2 889 600,0		
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 545 000,0		
8	Ijara to'lovi	212 000,0		
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	797 000,0		
10	Yuridik shaxslar yer solig'i	1 043 500,0		
11	Yig'imlar	3 566 000,0		
12	Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq	283 000,0		
13	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq	160 000,0		
14	Davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan tushum	40 000,0		
<b>II.</b>	<b>Taqsimlanadigan soliqlar</b>	<b>28 284 847,0</b>		
15	Aksiz solig'i alkogol maxsulotlari	10 705 475,0		
16	Aksiz solig'i mobil aloqa	6 098 898,0		
17	Aksiz solig'i tamaki maxsulotlari	11 480 474,0		
<b>III.</b>	<b>Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar</b>	<b>112 733 464,0</b>		
	<b>Daromadlar hammasi</b>	<b>199 586 411,0</b>		

Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
3-илова

<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>		<b>199 586 411</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	199 586 411
	shundan	
	xalq ta'limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash xarajatlari	0,0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	0,0
	suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'moli uchun xarajatlar	0,0
	melioratsiya obektlarini ta'mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	0,0
	Maxsus texnikalar xarid qilish uchun	0,0
	obektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	112 733 464,0
<b>1.</b>	<b>Xalq ta'limi bo'limi</b>	<b>8 788 073,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 788 073,0
<b>2.</b>	<b>Maktabgacha ta'lim bo'limi</b>	<b>10 425 913,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	10 425 913,0
<b>3.</b>	<b>Sog'liqni saqlash</b>	<b>61 412 897,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	61 412 897,0
<b>4.</b>	<b>Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar</b>	<b>39 600,0</b>
<b>5.</b>	<b>Madaniyat bo'limi</b>	<b>1 202 259</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 202 259
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	
<b>6.</b>	<b>Axborot kutubxona markazi</b>	<b>436 399,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	436 399,0
<b>7.</b>	<b>Jismoniy tarbiya va sport bo'limi</b>	<b>1 801 553,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 801 553,0
<b>8.</b>	<b>Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar</b>	<b>78 452 850,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	78 452 850,0
<b>9.</b>	<b>Ijtimoiy moslashuv markazi</b>	<b>50 236,0</b>

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	50 236,0
<b>10.</b>	<b>Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari</b>	<b>225 125,0</b>
	shu jumladan:	0,0
	joriy xarajatlar	225 125,0
<b>11.</b>	<b>Irrigatsiya bo‘limi</b>	<b>1 557 423,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 557 423,0
<b>12.</b>	<b>Obodonlashtirish boshqarmasi</b>	<b>6 894 894,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 894 894,0
<b>13.</b>	<b>Veterinariya bo‘limi va Xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik ovkat maxsulot xavfsizligi davlat markaz</b>	<b>1 306 448,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 306 448,0
<b>14.</b>	<b>Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun</b>	<b>1 258 206,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 258 206,0
<b>15.</b>	<b>Tuman hokimligining apparati</b>	<b>2 387 750,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 387 750,0
<b>16.</b>	<b>Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash harajatlari</b>	<b>4 781 110,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 781 110,0
<b>17.</b>	<b>Zahira jamg‘armasi</b>	<b>1 882 003,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 882 003,0
<b>18.</b>	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi</b>	<b>9 504 115,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 504 115,0
<b>19.</b>	<b>Tuman hokimligi Maxallabay ishlash markazi</b>	<b>4 253 041,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 253 041,0
<b>20.</b>	<b>Moliya bo‘limi</b>	<b>113 598 953,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	865 489,0
	Tuman mahalliy budjetiga transfertlar	112 733 464,0
<b>21.</b>	<b>Xalk kabulxonasi</b>	<b>40 672,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	40 672,0
<b>22.</b>	<b>Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi kotibiyati</b>	<b>194 925,0</b>

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	194 925,0
<b>23.</b>	<b>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi</b>	<b>537 031,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	537 031,0
<b>24.</b>	<b>Qishloq xo‘jaligi bo‘limi</b>	<b>434 463,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	434 463,0
<b>25.</b>	<b>Madaniyat bo‘limi apparati</b>	<b>144 146,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	144 146,0
<b>26.</b>	<b>Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi</b>	<b>709 790,0</b>
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	709 790,0

Халқ депутатлари Узун туман Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
4-илова

**Soliqlar va yig'imlardan tuman mahalliy budjetlariga 2022-yil uchun ajratmalar me'ori**

*Foiz hisobida*

Shaxar va T/Rtumanlar nomi	Aylanmadan solig'i	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig' *	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq **	Yuridik shaxslar yer solig'i ***	Yig'imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to'lovlari
1   Uzun tumani	100	100	100	100	75	50	80	100	100	50	100	20	100

Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
5-илова

**2022-yil uchun Uzun tuman budjeti daromadlar va  
xarajatlar prognoz ko'rsatkichlari**

ming so'mda

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
<b>JAMI</b>	<b>86 852 947</b>	<b>199 586 411</b>
Uzun tumani	<b>86 852 947,0</b>	<b>199 586 411,0</b>

Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
6-илова

**Uzun tuman budgetiga 2022-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo  
transfertlar miqdorlari**

**ming soʻmda**

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Tartibga soluvchi transfert miqdori</b>
<b>JAMI</b>	<b>112 733 464,0</b>
<i>shundan</i>	
Uzun tumani	<b>112 733 464,0</b>

Халқ депутатлари Узун туман  
Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-37-77-8-118-К/21-сон қарорига  
7-илова

**2022-yilda Uzun tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

**ming so‘mda**

<b>T/r</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Miqdor</b>
	<b>JAMI</b>	<b>810 870,0</b>
1	Uzun tumani	<b>810 870,0</b>